

Muxayyo Dustova

Katta o‘qituvchi

Qarshi davlat texnika universiteti

O‘zbekiston

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotation. Mazkur maqolada kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor moliyaviy menejment, raqamlı texnologiyalar, alternativ moliyalashtirish manbalari (fintex, kraudfanding, mikromoliya) hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari samaradorligiga qaratilgan. Tadqiqotda sohadagi dolzarb muammolar ochib beriladi va ularni bartarafe etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, fintex, moliyaviy menejment, raqamlı texnologiyalar, alternativ moliyalashtirish.

Мухайё Дустова

Старший преподаватель

Каршинский государственный технический университет

Узбекистан

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА

Аннотация. В статье исследуются роль и значение современных подходов в обеспечении финансовой устойчивости субъектов малого предпринимательства. В исследовании особое внимание уделяется финансовому менеджменту, цифровым технологиям, альтернативным источникам финансирования (финтех, краудфандинг, микрофинансирование), а

также эффективности мер государственной поддержки. Выявлены основные проблемы в этой области и даны рекомендации по повышению финансовой устойчивости частных предприятий.

Ключевые слова: малый бизнес, финансовая устойчивость, финтех, финансовый менеджмент, цифровые инструменты, альтернативное финансирование.

Mukhayyo Dustova

Senior Lecturer

Karshi State Technical University

Uzbekistan

MODERN APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY OF SMALL BUSINESSES

Abstract. This article explores the role and importance of modern approaches in ensuring the financial stability of small business entities. The study focuses on financial management, digital technologies, alternative financing sources (fintech, crowdfunding, microfinance), and the effectiveness of state support measures. It identifies key problems in the field and provides recommendations for improving the financial resilience of private enterprises.

Keywords: small business, financial sustainability, fintech, financial management, digital tools, alternative financing.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda hududiy rivojlanishga turki berish borasida ushbu sohaning tutgan o'rni beqiyosdir. Biroq bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy tahdidlar, ichki bozordagi o'zgaruvchanlik, resurslarga cheklangan kirish imkoniyati, inflyatsion xavflar hamda samarali moliyaviy

boshqaruv tizimining yetishmasligi ushbu subyektlarning barqaror faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarning – xususan, raqamli moliyaviy texnologiyalar, innovatsion moliyalashtirish vositalari, samarali risk-menejment tizimlarining qo'llanilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada aynan shu zamonaviy yondashuvlarning mohiyati, ularning amaliyatga tadbiq etilishi va kichik tadbirkorlik subyektlari moliyaviy barqarorligiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar asosida zaruriy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o'z moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish, to'lovga qobiliyatli bo'lish va iqtisodiy faoliyatni uzlusiz yuritish qobiliyatidir. U korxonaning iqtisodiy mustahkamligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi ko'p jihatdan korxonaning aktivlari va majburiyatlar o'rtasidagi nisbat, pul oqimlarining yetarliligi, o'z vaqtida qarzlarni qaytarish imkoniyati, foyda olish darajasi va moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarish salohiyatiga bog'liq. Bu omillar birgalikda korxonaning moliyaviy salomatligi haqida to'liq tasavvur beradi.

Amaliyotda moliyaviy barqarorlikni baholashda quyidagi asosiy mezonlar qo'llaniladi:

- likvidlilik ko'rsatkichlari;
- moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari;
- foydalilik (rentabellik) ko'rsatkichlari;
- to'lovga qobiliyatlilik;
- kapital tuzilmasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda fintex kompaniyalar soni ortib bormoqda, bu esa kichik biznes subektlariga an'anaviy bank xizmatlarisiz ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini bermoqda. Mobil ilovalar orqali hisob yuritish,

to‘lovlarni avtomatik bajarish, onlayn kredit olish — bular moliyaviy oqimlarni boshqarishni osonlashtiradi. Fintex texnologiyalarining afzallik tomoni vaqt va xarajatlarni tejashi va qulayligida bo‘lsa, kamchilik tomonini texnologik savodxonlik va xavfsizlik masalalarida ko‘rish mumkin.

1-jadval

Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar tahlili

Nº	Omil nomi	Ta’sir darajasi	Izoh
1	Raqamli moliyalashtirish vositalari	Yuqori	Onlayn bank xizmatlari, fintex platformalari
2	Soliq yengilliklari va imtiyozlar	O’rta	Amaliyatda mavjud, lekin ko‘pchilik tadbirkorlar bilmaydi
3	Mikromoliya va grant dasturlari	O’rta	Moliyaviy kirish imkoniyati mavjud, lekin cheklangan
4	Moliyaviy savodxonlik	Past	Ko‘pchilik kichik tadbirkorlarda bilim va ko‘nikma kam
5	Kreditlarga imkoniyati	Kirish	Banklar tomonidan talablar yuqori


An’anaviy bank kreditlaridan tashqari, kichik tadbirkorlar uchun kraudfanding, mikromoliya institutlari, investitsiya platformalari kabi imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, Uzum yoki ZoodMall orqali kichik tadbirkorlar mahsulotlarini sotib, pul aylanmasini ta’minlashlari mumkin.

Kichik biznes uchun risklarni oldindan aniqlash, baholash va minimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish mumkin. Buning uchun ERP tizimlari, CRM platformalari, moliyaviy rejorashtirish dasturlari joriy etilishi talab qilinadi.

O‘zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes uchun "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", subsidiyalar, soliq imtiyozlari va BHM asosidagi imtiyozli kreditlar kabi turli yordam shakllari yo‘lga qo‘yilgan. Ammo tadbirkorlarning aksariyati ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanmayapti. Zamonaviy yondashuvlar — raqamli texnologiyalar, alternativ moliyalashtirish va samarali risk-menejment — kichik

biznes subektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun quyidagi shartlar zarur:

- moliyaviy va texnologik savodxonlikni oshirish;
- davlat tomonidan ko‘mak infratuzilmasini soddalashtirish;
- fintex faoliyatini tartibga soluvchi aniq qonunchilikni shakllantirish.



1-rasm. Kichik biznes moliyaviy barqarorligini oshirish yo‘nalishlari

Xulosa. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligi umumiyligi iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, zamonaviy moliyaviy yondashuvlar — raqamli moliya vositalari, alternativ moliyalashtirish manbalari, samarali risk-menejment tizimlari hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznes subyektlarining barqarorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, amalda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy va texnologik savodxonlikning past darajada ekani, mukammal infratuzilmaning

shakllanmagani, normativ-huquqiy baza yetishmasligi va axborot olishdagi cheklovlar tadbirkorlarning faolligini pasaytirmoqda.

Shu munosabat bilan, quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

- kichik biznes subyektlari uchun raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o‘quv kurslari va platformalarini joriy etish;
- alternativ moliyalashtirish usullarini qonuniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- davlat tomonidan ajratiladigan resurslar va imtiyozlar haqida axborotni ochiq va shaffof shaklda yetkazish;
- hududiy darajada moliyaviy infratuzilmani kuchaytirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish.

Yuqorida chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va milliy iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-50-son, 2025 yil, 19 mart. <https://lex.uz/docs/-7444738>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-366-son. 2023 yil 15 noyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-6663044>
3. Khojanova G. O. NATURAL RESOURCES, THEIR TYPES AND INITIAL APPROACHES //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 83-86.
4. Xo‘janova G. Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish istiqbollari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 11-12.

5. Khojanova G. O. INVESTMENT AS A MEANS OF DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF ENTERPRISE PRODUCTION CAPACITY //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – С. 171-175.
6. Khojanova G. Tabiiy resurs salohiyati hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining-asosiy omili sifatida //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – Т. 2. – №. 02.